



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8795,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 90,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining o'sishida asosiy omil bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 28,1 % ga oshishi hisobidandir.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 7,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 11,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida- 36,2 % ga pasayish kuzatilgan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jamiga nisbatan ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 foizini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

Jamiga nisbatan ulushi, % da

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8342,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,9 foizini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 76,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 1554,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,7 %), o'rta-quyi texnologiyali 1225,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 13,9 %), quyi texnologiyali 5485,7 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 62,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi
(mlrd. so'm)



yuqori texnologiyali
o'rta-yuqori texnologiyali


Ishlab chiqarishdagi ulushi
(foizda)



quyi texnologiyali
o'rta-quyi texnologiyali



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati




2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 169,4 ming tonna chaqiq tosh (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 57,3 % ga o'sgan), 183,6 ming tonna po'latdan quvurlar (6,2 marta), 217,3 ming tonna asfalt (33,6 %), 10546,7 tonna yigirilgan ip (2,4 marta), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	107,7	169,4	61,7
Po'latdan quvurlar ming t.	29,4	183,6	154,2
Tamaki (sigaret), mln.dona	5478,0	5263,0	-215
Asfalt, ming t.	131,5	217,3	85,8
Yigirilgan ip, t	2277,1	10546,7	8269,6

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Xo'jalik sovuni, t	2804,0	2560,0	-244,0
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	40,8	13,1	-27,7
Paxta tolasi, ming t.	14,6	20,4	5,8
O'simlik yog'i, t	18967,6	18922,5	-45,1



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Tarkibida azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar

3,06
ming tonna



Aroq

128,0
ming l. 100% spirt



Xo'jalik sovuni

2560,0
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi


1030,7
ming l.

Pivo (pivo ishlab
chiqarish
chiqindilardan
tashqari)

19503,0
ming l.

Yumshoq bug'doy va
spelta uni

103,0
ming tonna.

Birinchi navli undan
tayyorlangan bug'doy
noni (buxanka), og'irligi
600 g.

416,7
tonna

Tozalangan paxta yog'i
va uning fraksiyalari
(kimyoviy modifikatsiya
qilinganlaridan tashqari)

7856,7
tonna



Paxta tolasi

20,4
ming tonna




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigiti

36,2
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

1336,5
tonna



Yigirilgan ip

10546,7
tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

47,2
mln kBt.s



Bug' va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

43,5
ming Gkal.




Portlandsement

49072,2
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab
chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Po'latdan quvurlar

183,6
ming tonna



Asfalt

217,3
ming tonna



Chaqiq tosh

169,4
ming tonna



Tamaki (sigaret)

5263,0
mln dona



Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

71,4
ming tonna



Mineral va kimyoviy
o'g'itlar chiqarish

13,1
ming tonna

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash***Jamiga nisbatan ulushi, % da*

5,4 %	<u>yanvar</u>
4,7 %	<u>fevral</u>
4,8 %	<u>mart</u>
4,7 %	<u>aprel</u>
4,2 %	<u>may</u>
3,7 %	<u>iyun</u>
3,8 %	<u>iyul</u>

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 338,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 foizini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash tarmoqlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 28,1 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Jamiga nisbatan ulushi, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini) tashkil etdi.

0,6 %	<u>vanvar</u>
0,6 %	<u>fevral</u>
0,7 %	mart
0,6 %	<u>aprel</u>
0,6 %	may
0,6 %	<u>iyun</u>
0,6 %	<u>iyul</u>




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,0 % ga pasayganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5560,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga pasayganligi va jami sanoatdagi ulushi 63,2 % ni tashkil etganligi aniqlandi.



2019- yilning mos davriga solishtirilganda, joriy yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,9 % dan 61,5 % gacha pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 4,5 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 4,9 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 43,6 % ni, shuningdek, Urgut tumani 13,2 % ni, Samarqand tumani 8,0 % ni, Jomboy tumani 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (96,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Pastdarg'om (152,2 %), Oqdaryo (164,9 %), Ishtixon (138,1 %), Payariq (117,8 %), Narpay (109,3 %), Jomboy (111,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	5560,5	100,0	96,0
Samarqand sh.	2422,5	43,6	98,5
Kattaqo'rg'on sh.	97,6	1,8	85,3
<i>tumanlar:</i>			
Samarqand	446,5	8,0	66,7
Ishtixon	141,1	2,5	138,1

Pastdarg'om	266,0	4,8	151,2
Payariq	73,3	1,3	117,8
Urgut	732,5	13,2	85,3
Toyloq	328,1	5,9	104,3
Oqdaryo	133,3	2,4	164,9
Jomboy	396,4	7,1	111,8
Narpay	136,7	2,5	109,3
Bulung'ur	107,2	1,9	53,4
Kattaqo'rg'on	96,3	1,7	98,8
Nurobod	115,5	2,1	105,7
Paxtachi	54,0	1,0	97,0
Qo'shrabot	13,2	0,2	101,0



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3297,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.




**Hududlar kesimida
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2020- yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Samarqand viloyati	8795,6	90,0
Samarqand sh.	4072,0	95,4
Kattaqo'rg'on sh.	164,7	100,7
<i>tumanlar:</i>		
Samarqand	655,3	73,8
Ishtixon	207,5	138,1
Pastdarg'om	340,9	104,6
Payariq	140,3	109,8
Urgut	725,6	82,7
Toyloq	325,8	98,5
Oqdaryo	176,4	120,9
Jomboy	1080,7	70,1
Narpay	298,5	121,6
Bulung'ur	130,9	65,9
Kattaqo'rg'on	185,3	101,8
Nurobod	112,3	111,5
Paxtachi	156,6	110,6
Qo'shrabot	22,6	92,6



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 46,3 %), Jomboy (12,3 %), Urgut (8,2 %), Samarqand (7,4 %), Pastdarg'om (3,9 %) Toyloq (3,7 %), Narpay (3,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %), Nurobod (1,3 %) hamda Bulung'ur (1,5%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi (2020- yil yanvar-iyul oylarida)


	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi % da
Samarqand viloyati	3 627,4	41,2
Samarqand sh.	1 143,9	28,1
Kattaqo'rg'on sh.	51,8	31,4
tumanlar:		

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi % da
Samarqand	470,8	71,9
Ishtixon	52,0	25,1
Pastdarg‘om	185,3	54,3
Payariq	139,8	99,6
Urgut	581,6	80,1
Toyloq	95,1	29,2
Oqdaryo	92,0	52,1
Jomboy	248,0	23,0
Narpay	36,1	12,1
Bulung‘ur	95,8	73,2
Kattaqo‘rg‘on	171,3	92,5
Nurobod	98,8	87,9
Paxtachi	148,2	94,6
Qo‘shrabot	17,0	75,2



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes
subyektlari ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3839,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Oqdaryo, Nurobod, hamda Bulung'ur (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) ni, Paxtachida (97,2 %), Urgut (81,9 %), Samarqand (74,0 %), Pastdarg'om (70,7 %), Payariq (52,5%) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (30,8 %), Samarqand shahri (28,3 %), Ishtixon (25,5 %), Narpay (13,2 %) tumanlarida kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6410 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1493 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 23,3 %) Samarqand shahriga, 924 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 591 tasi (9,2 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 947 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 131 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,8 %) Samarqand shahrida, 114 tasi (12,0 %) Urgut tumanida, 91 tasi (9,6 %) Pastdarg'om tumanida, 96 tasi (10,1 %) Samarqand tumanida tashkil etilgan.

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel: (66) 235-06-80